# Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi
*(2021- yil yanvar-avgust)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2021- yilning yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalari tomonidan 8333,3 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 114,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (84,5 %) ni tashkil etdi.







***B**– Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat **D**-Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI* *% da*







Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining - 17,2 % ga o‘sishi kuzatildi.

Shuningdek, elektr, gaz, bug‘ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 0,2 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoatining – 10,0 % ga, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining -18,6 % ga kamayganligi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, *% da*







Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 41,9 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

*( yil boshidan I- VIII oylar, % da )*







## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-avgust | 2021- yil yanvar-avgust | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Shag‘al , ming t.** | 0,0 | 0,0 | 0,0 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat




2021- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7038,4 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 84,5 % ini tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, *% da*




O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,7 % ni (2020- yilning yanvar-avgust oylarida - 2,9 %), o‘rta-yuqori texnologiyali - 5,7 % (5,6 %), o‘rta-quyi texnologiyali - 14,1 % (12,0 %) va quyi texnologiyalisi - 78,5 % (79,5 %) ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 39,2 % (2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 123,8 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 22,9 % (2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,7 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 2,3 % (2020-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 90,2 %), asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 1,3 % (2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 64,3 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,1 % (2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 97,0 %) ni tashkil etdi.

## **Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati**, *% da*

2021- yilning yanvar-avgust oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 33,8 ming tonna paxta tolasi (2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 3,1 martaga o‘sgan), 42,0 ming tonna omuxta yem (1,8 %) ishlab chiqarilib yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan,** *% da*

**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**




**Paxta tolasi**




**Omuxta yem**




**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-avgust | 2021- yil yanvar-avgust | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Paxta tolasi,** ming tonna | 10,9 | 33,8 | 22,9 |
| **Aroq –** ming litr 100 % spirt | 238,0 | 0 | -238,0 |
| **Konyak spirti –** ming litr 100 % spirt | 0 | 0 | 0 |
| **Vino,** ming litr | 366,4 | 0 | -366,4 |
| **Un,** ming tonna | 85,8 | 83,7 | -2,1 |
| **O‘simlik yog‘i (tozalangan),** ming tonna | 10,9 | 8,4 | -2,5 |

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

*2021- yilning yanvar-avgust oylarida*







Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1160,1 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (13,9 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 0,2 % ga kamayganligi kuzatildi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

*( yil boshidan I- VIII oylar, % da )*






## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-avgust | 2021- yil yanvar-avgust | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** mln.kVt/s | 3197,6 | 4383,5 | 1185,9 |
| **Issiqlik energiyasi,** ming gkal | 59,6 | 50,2 | -9,4 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish







Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 92,9 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ini) tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**
*( yil boshidan I- VIII oylar, % da )*

**2020-yil *% da***




**2021- yil *% da***




| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-avgust | 2021- yil yanvar-avgust | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar,** mlrd.so‘m | 30,0 | 52,7 | 22,7 |
| **Oqava suvlarni shlami,** mlrd.so‘m | 3,0 | 7,7 | 4,7 |
| **Shahar xo‘jaligining qayta ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar,** mlrd. so‘m | 16,8 | 16,3 | -0,5 |
| **To‘qimachilik chiqindilari,** tonna | 3,0 | 31,0 | 28,0 |
| **Xavfsiz metall chiqindilari,** ming.t | 0,0 | 0,0 | 0,0 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar 75,8 % ga, oqava suvlarni shlami 2,5 martaga ortganligi, hamda shahar xo‘jaligining qayta

ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar 3,2 % ga kamayganligi kuzatildi.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4652,0 mlrd.so‘mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 118,9 % ga o‘sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 55,8 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to‘g‘ri kelib, 44,1 % ni, shuningdek, Namangan tumani 10,8 % ni, To‘raqo‘rg‘on tumani 8,0 % ni, Kosobsoy tumani 7,0 % ni, Chust tumani 6,7 % ni, Uchqo‘rg‘on tumani 5,2 % ni hamda Pop tumani 3,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyat o‘sish sur’ati (118,9 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Chust (2,0 marta), Kosonsoy (145,2 %), To‘raqo‘rg‘on (158,0 %), Namangan shahar (122,2 %), Chortoq (127,8%) tumanlarida qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-avgust oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Namangan sh. | 2 050,7 | 44,1 | 122,2 |
| To‘raqo‘rg‘on | 371,9 | 8,0 | 158,0 |
| Mingbuloq | 179,6 | 3,9 | 57,5 |
| Uychi | 193,8 | 4,2 | 136,3 |
| Kosonsoy | 324,0 | 7,0 | 145,2 |
| Uchqo‘rg‘on | 243,9 | 5,2 | 100,8 |
| Namangan | 501,6 | 10,8 | 98,9 |
| Chortoq | 111,5 | 2,4 | 127,8 |
| Norin | 69,4 | 1,5 | 114,4 |
| Chust | 313,2 | 6,7 | 195,8 |
| Pop | 155,2 | 3,3 | 101,4 |
| Yangiqo‘rg‘on | 137,1 | 2,9 | 123,0 |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to‘g‘ri kelib, 35,4 % ni, shuningdek, Namangan tumani 13,6 % ni, To‘raqo‘rg‘on tumani 12,6 % ni hamda Kosonsoy tumani 10,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida yuqori ko‘rsatkich Chust (2,2 marta), To‘raqo‘rg‘on (170,7 %), Kosonsoy (149,7 %) hamda Pop (120,5 %) tumanlarida qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-avgust oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Namangan sh. | 1197,4 | 35,4 | 118,5 |
| To‘qaqo‘rg‘on | 65,5 | 2,7 | 120,5 |
| Mingbuloq | 1197,4 | 35,4 | 118,5 |
| Uychi | 95,4 | 2,7 | 85,8 |
| Kosonsoy | 288,8 | 10,5 | 149,7 |
| Uchqo‘rg‘on | 95,4 | 2,7 | 85,8 |
| 323,0 | 323,0 | 13,6 | 94,0 |
| Chortoq | 52,6 | 1,3 | 134,0 |
| Norin | 34,7 | 0,9 | 102,4 |
| Chust | 253,1 | 11,1 | 219,8 |
| Pop | 65,5 | 2,7 | 120,5 |
| Yangiqo‘rg‘on | 78,9 | 2,0 | 124,4 |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to‘g‘ri kelib, 48,5 % ni, shuningdek, Uchqo‘rg‘on tumani 9,8 % ni, Namangan tumani esa 10,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Mingbuloq tumani (196,7 %), Uychi tumani (157,5 %) hamda Chortoq tumanida (122,7 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati
*(2021- yilning yanvar-avgust oylarida)*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Namangan sh. | 853,3 | 48,5 | 127,8 |
| Mingbuloq | 34,5 | 1,8 | 196,7 |
| Kosonsoy | 35,4 | 2,1 | 116,5 |
| Namangan | 178,7 | 10,7 | 109,0 |
| Norin | 178,7 | 10,7 | 109,0 |
| Pop | 178,7 | 10,7 | 109,0 |
| To‘qaqo‘rg‘on | 37,5 | 2,0 | 94,8 |
| Uychi | 98,3 | 4,8 | 157,5 |
| Uchqo‘rg‘on | 172,2 | 9,8 | 109,9 |
| Chortoq | 58,7 | 4,5 | 122,7 |
| Chust | 58,7 | 4,5 | 122,7 |
| Yangiqo‘rg‘on | 58,3 | 4,4 | 121,1 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish
*2021- yilning yanvar-avgust oylarida*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 2057,0 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 24,7 % ni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari
*2021- yilning yanvar-avgust oylarida*

**Viloyat**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 8 333,3 | 100,0 | 114,9 |

**Namangan sh**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 3 283,3 | 39,4 | 111,6 |

**To‘raqo‘rg‘on**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 1 383,8 | 16,6 | 124,8 |

**Mingbuloq**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sish sur’ati |
|---|---|---|
| 346,8 | 4,2 | 98,5 |

**Uychi**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 549,2 | 6,6 | 106,8 |

**Kosonsoy**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 338,0 | 4,1 | 116,9 |

**Uchqo‘rg‘on**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 548,8 | 6,6 | 102,4 |

**Namangan**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 614,3 | 7,3 | 102,7 |

**Chortoq**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 119,2 | 1,4 | 101,6 |

**Norin**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 300,7 | 3,6 | 105,6 |

**Chust**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 460,2 | 5,5 | 124,3 |

**Pop**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 251,0 | 3,0 | 104,0 |

**Yangiqo‘rg‘on**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 138,0 | 1,7 | 113,4 |

## Hududlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati *% da*

Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida To‘raqo‘rg‘on (2020- yil yanvar-avgust oylariga

nisbatan 124,8 %), Chust (124,3 %), Kosonsoy (116,9 %), Namangan shahar (111,6 %) hamda Yangiqo‘rg‘on (113,4 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

| Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi, *% da* | Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o‘sish sur’ati, % da |
|---|---|




## Viloyat jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Namangan shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 39,4 % i) hamda To‘raqo‘rg‘on (16,6 %), Namangan (7,3 %), Uychi (6,6 %), va Uchqo‘rg‘on (6,6 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Chortoq (1,4 %) hamda Yangiqo‘rg‘on (1,7 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.






Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga To‘raqo‘rg‘on tumani (6040,2 ming so‘m), Namangan shahrida (5063,6 ming so‘m), Namangan tumani (3401,3 ming so‘m), Uchqo‘rg‘on (3130,5 ming so‘m) tumanlarida o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (2893,1 ming so‘m) yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Bu borada eng past ko‘rsatkich Chortoq (587,0 ming so‘m), Yangiqo‘rg‘on (619,4 ming so‘m), Pop (1123,1 ming so‘m) va Kosonsoy (1581,1 ming so‘m) tumanlarida ko‘rsatilmoqda.

## Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-avgust oylarida, ming so‘m*

| | Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|---|
| Viloyat | 2 893,1 | 1 615,1 |
| Namangan sh | 5 063,6 | 3 162,6 |
| To’raqo’rg’on | 6 040,2 | 1 623,5 |
| Mingbuloq | 2 688,5 | 1 392,5 |
| Uychi | 2 520,5 | 889,2 |
| Kosonsoy | 1 581,1 | 1 515,5 |
| Uchqo’rg’on | 3 130,5 | 1 391,5 |
| Namangan | 3 401,3 | 2 777,5 |
| Chortoq | 587,0 | 549,1 |
| Norin | 1 804,0 | 416,4 |
| Chust | 1 702,7 | 1 158,9 |
| Pop | 1 123,1 | 694,5 |
| Yangiqo’rg’on | 619,4 | 615,5 |

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*2021- yilning yanvar-avgust oylarida, % da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3866,6 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 46,4 % ni tashkil etdi.






Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo`rg`on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Uychi (73,3 %) va Kosonsoy (69,1 %)  tumanlarida kuzatildi.

Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, eng kichkina ulush Uchqo‘rg‘on (13,9 %), To‘raqo‘rg‘on (15,4 %), Mingbuloq (26,6 %) va Chust (37,0 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
*(2021- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda viloyatda 7274 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 2769 tasi (faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 38,1 % i) Namangan shahriga, 565 tasi (7,8 %) Uychi tumaniga, 555 tasi (7,6 %) Chust tumaniga, 545 tasi (7,5 %) Kosonsoy tumaniga, 520 tasi (7,1 %) Namangan tumaniga, 481 tasi (6,6 %) To‘raqo‘rg‘on tumaniga to‘gri kelmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, *birlikda*** | **Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni, *birlikda***




2021- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatda 1066 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 312 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 26,8 %) Namangan shahrida, 112 tasi (9,6 %) Norin tumanida, 97 tasi (8,3 %) Chust tumanida, 96 tasi (8,2 %)

To‘raqo‘rg‘on tumanida, 92 tasi (8,3 %) Kosonsoy tumanida hamda 92 tasi (7,9 %) Uychi tumanida tashkil etildi.

## Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari

*2021- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra*

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan eng ko‘p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Namangan shahar (2 769 ta), Uychi (565 ta), Chust (555 ta), Kosonsoy (545 ta), Namangan (520 ta), To`raqo`rg`on (481 ta) tumanlari qayd etildi.







2021-yilning 1-sentabr holatiga ko‘ra viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Mingbuloq (195 ta), Pop (294 ta), Chortoq (315 ta), Yangiqo‘rg‘on (320 ta), Uchqo‘rg‘on (334 ta) hamda Norin (381 ta) tumanlari qayd etildi.

**Sanoat statistikasi bo‘limi**

*Tel.: (69) 227-84-80*